

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 162896 на приобретение Самарқанд вилояти Транспорт бошқармаси муассислигидаги Самарқандйўловчитранс давлат корхонаси маъмурий биноси ва унга ёрдамчи бўлган биналарни қуриш учун лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш**

Способ проведения электронный

Дата 25.10.2022

Время рассмотрения 25.10.2022 12:49

Закупочная комиссия , (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Член комиссии</b>	BARAKAYEV LUTFILLO ATABAYEVICH	mutaxassis	Samarqandyo'lovchitrans
<b>Секретарь комиссии</b>	QORABOYEV G'OFURJON SHOKIRXON O'G'LI	`mutaxassis	Samarqandyo'lovchitrans
<b>Член комиссии</b>	BURXANOV SHAVKAT MAXMADKULOVICH	xo'jalik mudiri	Samarqandyo'lovchitrans
<b>Член комиссии</b>	XAKIMOVA SEVILYA BATIROVNA	Bosh xisobchi	Samarqandyo'lovchitrans
<b>Член комиссии</b>	TURSUNOV SHUXRAT ISTATOVICH	mutaxassis	Samarqandyo'lovchitrans
<b>Председатель комиссии</b>	BAXRIYEV AKPAR ISAMIDINOVICH	Deriktor	Samarqandyo'lovchitrans

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 25.10.2022 года № лота 162896.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по разработке проектно-сметных работ</b>
Подробное описание	Самарқанд вилояти Транспорт бошқармаси муассислигидаги Самарқандйўловчитранс давлат корхонаси маъмурий биноси ва унга ёрдамчи бўлган биналарни қуриш учун лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	400 000 000.00
Стартовая сумма	400 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Молиявий холати бўйича маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифларни танлаш хужжатларида келтирилган 2,3 шакиллар тулдирилиб, имзо ва мухир куйилиш шарт, сунги 3 йиллик айланма маблағлари туғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ORDER MAX PROJECT MCHJ</b>	30	30	25	Экспертная		
<b>D-INEX MCHJ</b>	30	Ma'lumotnoma namunaga asosan yuklandi	0	Экспертная		
<b>LUCKY REBIRTH</b>	30	30	25	Экспертная		
<b>ООО TURON LOYIHA</b>	30	350000000	0	Экспертная		
<b>ООО "ARX-IDEYA PROJECT"</b>	30	300 000 000	28	Экспертная		
<b>МАНКАМ BUILDING MCHJ</b>	30	30	10	Экспертная		

Критерий №2 Мутахассис ходимлар ва Мавжуд техник асбоблар тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифни танлаш хужжатларидаги 1,5-шакиллар мутахассис ходимлар ва техник асбоб ускуналарнинг рўйхати ва реестри имзо ва муҳр билан тасдиқланган ПДФ форматда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ORDER MAX PROJECT MCHJ</b>	30	30	25	Экспертная		
<b>D-INEX MCHJ</b>	30	Ma'lumotnoma namunaga asosan yuklandi	22	Экспертная		
<b>LUCKY REBIRTH</b>	30	30	20	Экспертная		
<b>ООО TURON LOYIHA</b>	30	350000000	15	Экспертная		
<b>ООО "ARX-IDEYA PROJECT"</b>	30	30	28	Экспертная		
<b>МАНКАМ BUILDING MCHJ</b>	30	30	15	Экспертная		

Критерий №3 Ушбу соҳада ишлаган иш тажрибаси ва объектни бориб урганлиги бўйича маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифларни танлаш хужжатидаги 4,6-шакиллар Ушбу соҳа бўйича талаб этиладиган бўлса лицензия, гувоҳнома, сунги 3 йилда шунга ухшаш объектларда бажарган ишлари, имзо ва муҳр билан тасдиқланган ПДФ форматда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ORDER MAX PROJECT MCHJ</b>	30	30	24	Экспертная		
<b>D-INEX MCHJ</b>	30	Ma'lumotnoma namunaga asosan yuklandi	20	Экспертная		
<b>LUCKY REBIRTH</b>	30	30	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО TURON LOYIHA</b>	30	350000000	10	Экспертная		
<b>ООО "ARX-IDEYA PROJECT"</b>	30	30	27	Экспертная		
<b>МАНКАМ BUILDING MCHJ</b>	30	30	10	Экспертная		

Критерий №4 Давлат солиқ кумитасидан қарздорлиги бўйича маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Давлат солиқ кумитасдин берилган маълумотнома тақдим этилади тасдиқланган ПДФ форматда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ORDER MAX PROJECT MCHJ</b>	10	10	10	Экспертная		
<b>D-INEX MCHJ</b>	10	Ma'lumotnoma namunaga asosan yuklandi	10	Экспертная		
<b>LUCKY REBIRTH</b>	10	10	10	Экспертная		
<b>ООО TURON LOYIHA</b>	10	350000000	10	Экспертная		
<b>ООО "ARX-IDEYA PROJECT"</b>	10	10	10	Экспертная		
<b>МАНКАМ BUILDING MCHJ</b>	10	10	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
<b>ORDER MAX PROJECT MCHJ</b>	400 000 000.00	280 000 000.00 UZS	280 000 000.00	00.00	280 000 000.00	17.10.2022 17:55:07	17.85714
<b>LUCKY REBIRTH</b>	400 000 000.00	250 000 000.00 UZS	250 000 000.00	00.00	250 000 000.00	20.10.2022 09:22:50	20
<b>ООО "ARX-IDEYA PROJECT"</b>	400 000 000.00	250 000 000.00 UZS	250 000 000.00	00.00	250 000 000.00	20.10.2022 11:44:51	20

**Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей**

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>ORDER MAX PROJECT MCHJ</b>	67.2	17.85714	85.05714

D-INEX MCHJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
ООО TURON LOYIHA	Не прошел	Не прошел	Не прошел
LUCKY REBIRTH	60	20	80
МАНКАМ BUILDING MCHJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
ООО "ARX-IDEYA PROJECT"	74.4	20	94.4

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 162896 от 25.10.2022 года на приобретение Самарқанд вилояти Транспорт бошқармаси муассислигидаги Самарқандйўловчитранс давлат корхонаси маъмурий биноси ва унга ёрдамчи бўлган биноларни қуриш учун лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш определила победителем:

ООО "ARX-IDEYA PROJECT"  
306874292

и резервный исполнитель: ORDER MAX PROJECT MCHJ (303456062)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	BAXRIYEV AKPAR ISAMIDINOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	BURXANOV SHAVKAT MAXMADKULOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XAKIMOVA SEVILYA BATIROVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	BARAKAYEV LUTFILLO ATABAYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	TURSUNOV SHUXRAT ISTATOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



## BAYONI

Samarqand shahri

« 3 » 11 2022 y.

Raislik qiluvchi

A.Baxriev

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Barakaev L.A	Komissiya raisi o'rinbosari korxonada mutaxassisi
Tursunov SH.I	Komissiya a'zosi korxonada mutaxassisi,
Burxanov SH.M	Komissiya a'zosi xo'jalik mudiri,
Xakimova S.B	Komissiya a'zosi, Bosh xisobchi,
Qoraboyev G'.SH	Komissiya kotibi, korxonada mutaxassisi.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

### KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan Samarqandyo'lovchitrans davlat korxonasi direktori A.Baxriev so'zga chiqib korxonada binosini qayta qurish va Samarqand shahrida sifatli yo'lovchi tashish xizmatini tashkil etish maqsadida quyidagi

**1. Samarqandyo'lovchitrans davlat korxonasi ma'muriy binosi va unga yordamchi bulgan binolarni qurish ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida**

(Barakaev L.A, Tursunov SH.I, Burxanov SH.M, Hakimova S.B.)

Samarqandyo'lovchitrans davlat korxonasi tomonidan 2022 yil 13 oktyabr O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 25 oktyabrdagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakillangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan

“ARX-IDEYA PROJECT” MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib

### YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuni joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha hech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Korxonada bosh xisobchisi. S.Xakimova, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 25 oktyabrdagi elektron bayonnomalariga asosan “ARX-IDEYA PROJECT” MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

### Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Barakaev L.A		Korxonada mutaxassisi
Tursunov SH.I		Korxonada mutaxassisi
Burxanov SH.M		Korxonada xo'jalik mudiri
Xakimova S.B		Bosh xisobchi
Qoraboyev G'.SH		Korxonada mutaxassisi

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI**  
**(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**  
**01/22-LS – sonli**

“ 4 “ 11 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand viloyati Transport boshqarmasi muassisligidagi Samarqandyo'lovchitrans” davlat korxonasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan direktori **A.Baxriev** bir tomondan va “ARX-IDEYA PROJECT” MCHJ (Keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi **A.Xalimov** ikkinchi tomondan “Samarqand viloyati Transport boshqarmasi muassisligidagi Samarqandyo'lovchitrans” davlat korxonasi xarid komissiyasining **25 oktyabr 2022 yildagi 162896-sonli** bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

**1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: “ARX-IDEYA PROJECT” MCHJ belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.**

**1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.**

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

**2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 250 000 000 (ikki yuz ellik million) so'mni tashkil qiladi.**

**3. TO'LOV TARTIBI**

**3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.**

**3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.**

**3.3. Har bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.**

**3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.**

**3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.**

**3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:**

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

**4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

**4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida mualliflik nazoratini olib borish, shunindек tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.**

**4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.**

**4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.**

**4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning roziligisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.**

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va qisqa muddatda «Buyurtmachi»ga topshirishi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlarni loyihada to'g'irlab berishni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha ish turlari uchun «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» dan qo'shimcha haq talab qilmaydi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni o'z zimmasiga olmaydi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## 6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab **30 kun** ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar uch nusxada «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 30 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan muddatlarda o'ziga bog'liq bo'lmagan hollarga ko'ra bajara olmagan va muddatni uzaytirish borasida muddat tugagunga qadar «Buyurtmachi» ni xabardor qilgan hollarda, shuningdek taraflarning o'zaro kelishuviga asosan boshqa holatlarda ham ishlarni bajarish muddatiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

6.8. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

6.9. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.



## 7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «**Bajaruvchi**» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «**Buyurtmachi**»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «**Buyurtmachi**» va «**Bajaruvchi**» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandeda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «**Bajaruvchi**» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «**Buyurtmachi**» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «**Bajaruvchi**» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «**Buyurtmachi**»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «**Bajaruvchi**»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shahar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «**Buyurtmachi**» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «**Bajaruvchi**» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «**Buyurtmachi**»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi



miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.12. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

## TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

### “BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand viloyati Transport boshqarmasi muassisligidagi Samarqandyo'lovchitrans” davlat korxonasi

Manzili: Samarqand sh. Gagarin kuchasi, 23 uy

L/s: 20210000700220120001

STIR: 200711344

MFO: 00312 ATIB IPOTEKA BANK Samarqand vil

OKED

Direktor

A.Baxriyev

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunhiliq talablarga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbir etilmaydi.

Yurist

### “BAJARUVCHI”

Nomi: "ARX-IDEYA PROJECT" MCHJ

Manzili: Samarqand sh. Chukur yul 35

Bank nomi: “UzSanoatKurulushBanki” ATB bosh ofis

X/R: 2020 8000 3051 4717 6001

MFO: 00440

STIR: 306874292

OKNX:

Direktor

A.Xalimov

Yurist